



ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA INSON HUQUQLARINING KAFOLATLANISHI

Bo‘ronova Maftuna Shaymardon qizi

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti 1-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada 2023-yilda umumxalq referendumi asosida qabul qilingan yangi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqlarining kafolatlanishi masalasi huquqiy, ijtimoiy va xalqaro nuqtai nazardan batafsil tahlil etiladi. Konstitutsiyaning inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlari, asosiy huquqlar turlari, ularning amalda ta‘minlanishi va huquqiy kafolatlarining mazmuni ochib beriladi. Shuningdek, Konstitutsiyaning xalqaro huquq normalari bilan uyg‘unligi ham yoritiladi. Maqola yangi konstitutsiyaviy mexanizmlarni chuqur anglash va fuqarolik jamiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Inson huquqlari, Konstitutsiya, kafolatlar, erkinliklar, sud himoyasi, huquqiy davlat, xalqaro huquq.

ЎЗБЕКІСТАН CUMHURİYETİ ANAYASASI’NDA İNSAN HAKLARININ GÜVENCE ALTINA ALINMASI

Bo‘ronova Maftuna Shaymardon qizi

Termez Devlet Üniversitesi

Hukuk Fakültesi 1. sınıf öğrencisi

ÖZET

Bu makalede, 2023 yılında halk oylaması sonucunda kabul edilen yeni Özbekistan Cumhuriyeti Anayasasında insan haklarının güvence altına alınması konusu, hukuki, sosyal ve uluslararası açıdan detaylı bir şekilde incelenmiştir. Anayasanın insan haklarını koruma mekanizmaları, temel hak türleri, bu hakların pratikte uygulanması ve hukuki güvencelerinin kapsamı açıklanmıştır. Ayrıca, Anayasanın uluslararası hukuk normlarıyla uyumluluğu da ele alınmıştır. Makale, yeni anayasal mekanizmaları derinlemesine anlamak ve sivil toplumu güçlendirmek amacıyla hazırlanmıştır.

Anahtar kelimeler: İnsan hakları, Anayasa, güvence, özgürlükler, yargı koruması, hukuki devlet, uluslararası hukuk.

ГАРАНТИИ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В КОНСТИТУЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Бўронова Мафтуна Шаймардон қизи

Студентка 1 курса юридического факультета

Термезский государственный университет

АННОТАЦИЯ

В данной статье подробно анализируется вопрос обеспечения прав человека в новой Конституции Республики Узбекистан, принятой на общенародном референдуме в 2023 году, с правовой, социальной и международной точек зрения. Рассматриваются механизмы защиты прав человека, основные виды прав, их практическое обеспечение и содержание юридических гарантий. Также освещается соответствие Конституции нормам международного права. Статья направлена на глубокое понимание новых конституционных механизмов и укрепление гражданского общества.

Ключевые слова: Права человека, Конституция, гарантии, свободы, судебная защита, правовое государство, международное право.



THE GUARANTEE OF HUMAN RIGHTS IN THE CONSTITUTION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Bo‘ronova Maftuna Shaymardon qizi

First-year student, Faculty of Law

Termez State University

ABSTRACT

This article provides a detailed analysis of the issue of ensuring human rights in the new Constitution of the Republic of Uzbekistan, adopted through a nationwide referendum in 2023, from legal, social, and international perspectives. The mechanisms for protecting human rights, the main types of rights, their practical implementation, and the content of legal guarantees are examined. In addition, the compatibility of the Constitution with international law norms is highlighted. The article aims to offer a deep understanding of the new constitutional mechanisms and to strengthen civil society

Keywords: Human rights, Constitution, guarantees, freedoms, judicial protection, rule of law, international law.

KIRISH

Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish har qanday demokratik davlatning eng muhim tamoyillaridan biridir. Bu prinsip O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida ham alohida asosiy o‘rin tutadi. 2023-yil 30-aprel kuni umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan Konstitutsiya inson huquqlari hamda erkinliklarini yanada kuchli kafolatlash, huquqiy himoya mexanizmlarini takomillashtirish va xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta‘minlashga qaratilgan. O‘zbekiston Konstitutsiyasi fuqarolarning huquqlarini mustahkamlovchi norma sifatida tuzilgan bo‘lib, bu huquqlarni himoya qilish davlatning eng oliy maqsadi deb belgilaydi. Bu maqola huquqiy asosni chuqur o‘rganish va Konstitutsiyada kafolatlangan huquqlarni aniq misollar bilan ko‘rsatishga qaratilgan.

ASOSIY QISM

Konstitutsiyada inson huquqlarining umumiy tamoyillari, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning ikkinchi bo‘limi inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini tartibga soladi. Unga ko‘ra, inson huquq va erkinliklari Xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan normalariga binoan e‘tirof etiladi va kafolatlanadi. Bular fuqarolar tug‘ilgan paytdan boshlab huquqlarga ega bo‘lishini, hamda hech kim qonunlar belgilamagan holatda ularni yo‘qotish yoki cheklash mumkin emasligini bildiradi.

Shuningdek, Konstitutsiyada barcha shaxslar teng huquqlarga ega bo‘lib, ularning jins, millat, til, din, ijtimoiy kelib chiqishidan qat‘iy nazar, qonun oldida tengligi kafolatlanadi. Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat tamoyiliga muvofiq bo‘lishi shart. Bu norma O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 19-moddasida keltirilgan.

Shaxsiy va fuqarolik huquqlari, hayot va daxlsizlik huquqi — har bir insonning huquqi bo‘lib, Konstitutsiya unga daxlsizlikni kafolatlaydi. Barcha shaxslar noqonuniy ayblovlar, qamoqqa olish yoki hibsga olishdan himoyalangan bo‘lishi kerak. Sud qarorisiz shaxsning erkinligi cheklanmaydi. Sha‘n va qadr-qimmatning daxlsizligi — Konstitutsiya inson sha‘ni va qadr-qimmatini mustahkam kafolatlaydi, hech kim qiynoqqa solinmasligi, zo‘ravonlik qilinmasligi yoki inson qadrini kamsituvchi muomala bilan duchor etilmasligini belgilaydi. Bu huquqlar shaxsiy daxlsizlik, azob-uqubatlardan himoya va sud jarayoni orqali kafolatlangan bo‘lib, odamning erkinligi va sha‘niga putur yetkazilishining oldini oladi. Chunki O‘zbekistonda insonning sha‘ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadi.



Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlar, Konstitutsiyada fuqarolarning ijtimoiy huquqlari ham aniq nazarda tutilgan. Masalan: Mehnat qilish va kasbini erkin tanlash huquqi, ta'lim olish huquqi, sog'liqni saqlash xizmatlariga kirish huquqi. Madaniy va ilmiy ijod erkinligi, bu huquqlar fuqarolarning ijtimoiy farovonligini ta'minlaydi va davlat tomonidan kafolatlanadi. Hamda Madaniy va ilmiy ijodiy erkinlik – shaxsning fikrini, ilmiy izlanishlarini va ijodiy faoliyatini hech qanday cheklovlarsiz amalga oshirish huquqini belgilaydi. Madaniy erkinlik bu, san'at, adabiyot, musiqiy va milliy madaniyat bilan shug'ullanish hisoblanadi. Ilmiy-ijodiy erkinlik esa, ilmiy tadqiqot, yangi g'oya va ijodiy asar yaratishda erkinlikdir.

Siyosiy huquqlar va erkinliklar bu, konstitutsiya fuqarolarga siyosiy huquqlarni kafolatlab, ular: konstitutsiyamizning 36-40-moddalarini o'z ichiga oladi hamda davlat hokimiyati organlariga saylash va saylanish huquqiga ega bo'lish, partiyalar tuzish va erkin siyosiy faoliyat yuritish, yig'ilish, miting va namoyishlar o'tkazish huquqlarini kafolatlaydi. Bu huquqlar demokratik jamiyatning shakllanishi va fuqarolarning davlat boshqaruvida bevosita ishtirokini ta'minlaydi. Shu bilan birgalikda, siyosiy huquqlar faqatgina O'zbekiston Respublikasi fuqorolariga tegishli hisoblanadi. Chet el fuqorolari yoki fuqoroligi bo'lmagan shaxslar saylash va saylanish huquqiga ega bo'lmaydilar.

Huquqlarni himoya qilish mexanizmlari, konstitutsiya inson huquqlarini himoya qilish uchun bir nechta mexanizmlarni belgilaydi:

Sud himoyasi: har bir shaxs huquqlari buzilgan taqdirda sud orqali ularni tiklash huquqiga ega. Konstitutsiya sud mustaqilligi va adolatli sud jarayonini kafolatlaydi.

Davlat nazorati: prokuratura, huquq-tartibot organlari va Ombudsman institutlari huquqiy nazoratni amalga oshiradi hamda fuqarolarning shikoyatlarini ko'rib chiqadi. Xalqaro himoya: agar barcha ichki huquqiy vositalar tugatilgan bo'lsa, shaxslar xalqaro huquqiy organlarga murojaat qilish huquqiga ega.

Konstitutsiya va xalqaro huquqiy standartlar, O'zbekiston Konstitutsiyasi xalqaro huquq normalari bilan uyg'un bo'lib, inson huquqlariga oid umume'tirof etilgan standartlarga tayanadi. Masalan, BMT Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi prinsiplariga qo'shilib, shaxsiy erkinliklar, tenglik va adolat tamoyillari mustahkamlanadi. Bu uyg'unlik O'zbekistonning xalqaro hamjamiyat bilan munosabatini mustahkamlaydi hamda fuqarolarga huquqiy himoyani global darajada ta'minlaydi.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida inson huquqlari va erkinliklari mustahkam kafolatlangan. Konstitutsiya fuqarolarning shaxsiy, fuqarolik, siyosiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini himoya qiladi hamda davlat organlariga bu huquqlarni ta'minlash majburiyatini yuklaydi. Huquqlarni himoya qilish mexanizmlari sud, davlat nazorati va xalqaro mexanizmlar orqali mustahkam ko'rinishda ta'minlanadi. Shuningdek, Konstitutsiyaning xalqaro huquqiy normalar bilan uyg'unligi demokratik jamiyat, qonun ustuvorligi va huquqiy davlat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “Huquq”, 2023. – 128 b.
2. O'zbekiston Respublikasining “Inson huquqlari to'g'risida”gi Qonuni. – T.: “Adolat”, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasining “Fuqarolik jamiyati va inson huquqlari”. – T.: O'zbekiston Milliy universiteti nashri, 2021.
4. Abdugarimov, S. Inson huquqlari va konstitutsiyaviy kafolatlar. – T.: “Ilm-Ziyo”, 2022. – 152 b.



5. Karimov, T. O‘zbekiston huquq tizimida inson huquqlarining rivojlanishi. – T.: “Fan va texnologiya”, 2021. – 178 b.
6. Mamatqulov, R. Inson huquqlari va erkinliklar kafolati: nazariy va amaliy jihatlar. – T.: “Huquq”, 2020. – 140 b.
7. BMT Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. – Nyu-York, 1948.
8. Evropa Inson Huquqlari Konvensiyasi. – Strasburg, 1950.
9. Sodiqov, A. Konstitutsiyaviy huquqiy kafolatlar va jamiyat taraqqiyoti. – T.: “Adolat nashr”, 2021. – 165 b.
10. Toshpulatov, N. O‘zbekistonning xalqaro inson huquqlari majburiyatlari. – T.: “Huquq va jamiyat”, 2022. – 120 b.
11. Xudoyberdiyev, F. O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlari himoyasi: nazariy va amaliy jihatlar. – T.: “Ilmiy axborot”, 2021. – 134 b.
12. Rasulov, B. O‘zbekiston konstitutsiyasida inson huquqlari va erkinliklar. – T.: “Huquqshunos”, 2020. – 110 b.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari (inson huquqlarini rivojlantirishga oid). – 2019–2023.
14. Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy maqolalar to‘plami: Inson huquqlari kafolatlari. – T., 2022.
15. Jaloliddinov, D. Inson huquqlari kafolatlari va ularning amaliyoti O‘zbekistonda. – T.: “Adabiyot nashr”, 2021. – 142 b.